



№5/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

OILA, TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIGIDA YOSHLARNI OMMAVIY MADANIYAT TAHDIDLARIDAN ASRASH MASALALARI

Odilov Komiljon Furqatjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatayotgan ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Oila, ta'lim muassasalari va mahalla institutining yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishdagi o'rni, ularning o'zaro hamkorligi mexanizmlari hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlar ongida milliy qadriyatlar, ma'naviy immunitet va mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar:

ommaviy madaniyat, ma'naviy tahdid, yoshlar tarbiyasi, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ma'naviy immunitet, milliy qadriyatlar, hamkorlik.

Аннотация.

В данной статье анализируются негативные аспекты массовой культуры, оказывающей влияние на сознание молодежи в условиях глобализации. Освещается роль семьи, образовательных учреждений и института махалли в защите молодежи от духовных угроз, механизмы их взаимодействия, а также вопросы повышения эффективности духовно-нравственного воспитания. Кроме того, представлены научные выводы и практические рекомендации по формированию у молодежи национальных ценностей, духовного иммунитета и идеологической устойчивости.

Ключевые слова:

массовая культура, духовные угрозы, воспитание молодежи, семья, махалля, образовательные учреждения, духовный иммунитет, национальные ценности, сотрудничество.

Abstract.

This article analyzes the negative aspects of mass culture influencing the consciousness of young people in the context of globalization. It highlights the role of the family, educational institutions, and the mahalla institution in protecting youth from spiritual threats, as well as the mechanisms of their cooperation and issues related to improving the effectiveness of spiritual and educational upbringing. Furthermore, scientific conclusions and practical recommendations aimed at fostering national values, spiritual immunity, and ideological stability among young people are presented.

Keywords:

mass culture, spiritual threats, youth education, family, mahalla, educational institutions, spiritual immunity, national values, cooperation.

Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratishi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ayrim salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog'i va ijtimoiy media platformalarining keng tarqalishi natijasida turli g'oyalar, qarashlar va madaniy oqimlar jamiyat hayotiga tez kirib kelmoqda. Ularning ayrimlari insoniyat taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishiga xizmat qilsa, ba'zilari "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, milliy qadriyatlar, urf-odatlar hamda an'anaviy tarbiya tizimining zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, yoshlarning hali to'liq shakllanib ulgurmagan dunyoqarashi va hayotiy tajribasining yetarli emasligi ularning turli ma'naviy tahdidlarga nisbatan ta'sirchanligini oshiradi. Ommaviy madaniyatning ayrim ko'rinishlari individualizm, befarqlik, yengil-yelpi turmush tarzini targ'ib etish orqali yoshlarning milliy o'zligidan uzoqlashishiga, ma'naviy

qadriyatlarga nisbatan loqayd munosabat shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilish, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya, yuksak ma'naviyat va mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Bugungi kunda ma'naviy tahdidlarning asosiy ko'rinishlari sifatida diniy ekstremizm va radikalizm, axborot xurujlari, kiber-makon orqali tarqatilayotgan zararli g'oyalar, milliy qadriyatlarni inkor etuvchi qarashlar, zo'rvonlik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi materiallar, giyohvandlik va boshqa salbiy illatlarni ommalashtiruvchi axborotlar, shuningdek, ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ko'rinishlarini keltirish mumkin. Bunday tahdidlar yoshlarning ongiga asta-sekin singib borib, ularning ma'naviy qiyofasi va hayotiy maqsadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi”. Mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun zarur huquqiy, tashkiliy va ma'naviy asoslar yaratilmoqda. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni turli yot g'oyalar va mafkuraviy xurujlardan himoya qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishida oila, ta'lim muassasalari hamda mahalla institutining o'zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki farzand tarbiyasi faqat birgina muassasa yoki ijtimoiy institut zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasdan, jamiyatning barcha bo'g'inlari hamkorligida amalga oshiriladigan uzviy jarayondir. Oilada shakllangan dastlabki tarbiya, ta'lim muassasalarida beriladigan bilim va ko'nikmalar hamda mahallada qaror topgan sog'lom ijtimoiy muhit o'zaro uyg'unlashgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Mazkur uchlikning samarali hamkorligi yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat tuyg'usini shakllantirish hamda ularni turli mafkuraviy tahdidlar va zararli axborot oqimlaridan himoya qilishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligini yanada takomillashtirish, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish bugungi davrning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash masalalari bugungi kunda davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma'ruzalarida hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mazmunida o'zining aniq ifodasini topgan. Xususan, “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashiga sharoit yaratish hamda ma'naviy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni hamda “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonunida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyatda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy asoslar mustahkam belgilab qo'yilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar yoshlar siyosatini izchil amalga oshirishda davlat organlari, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy xavfsizlik masalalari bir qator mahalliy olimlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Jumladan, A. Erkayev, Q. Nazarov, E. Yusupov, N. Jo'rayev kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida ma'naviy tahdidlarning mohiyati, mafkuraviy

immunitetni shakllantirish mexanizmlari hamda yoshlar tarbiyasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlarda globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish, yoshlar ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirish hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlash masalalari alohida e'tibor bilan yoritilgan.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda milliy qadriyatlar, an'anaviy tarbiya tizimi hamda ijtimoiy institutlarning – oila, ta'lim muassasalari va mahalla tizimining – yoshlar tarbiyasidagi o'rni va tarbiyaviy imkoniyatlari alohida ta'kidlanadi. Mazkur institutlarning o'zaro hamkorligi yosh avlodni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashda muhim omil sifatida baholanadi. Maqolani tayyorlashda ilmiy tadqiqot ishlariga xos bo'lgan bir qator zamonaviy metodologik yondashuvlardan keng foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv metodi asosida oila, ta'lim muassasalari va mahalla institutlari alohida-alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan yaxlit ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv mazkur institutlarning har biri yoshlar tarbiyasi jarayonida o'ziga xos vazifalarni bajarishi bilan birga, umumiy maqsad — barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiluvchi yagona tarbiyaviy mexanizmni tashkil etishini ko'rsatib berdi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil metodidan foydalanilib, turli ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy tajribalar hamda mavjud amaliy yondashuvlar o'zaro solishtirildi. Bu orqali yoshlar tarbiyasi va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi ilmiy asosda baholandi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy institutlar hamkorligi qanchalik kuchli bo'lsa, yoshlar ongida shakllanadigan mafkuraviy immunitet ham shunchalik barqaror bo'ladi.

Bundan tashqari, ilmiy umumlashtirish metodi orqali yig'ilgan nazariy qarashlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlar tizimlashtirildi hamda ular asosida umumiy ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Ushbu jarayon yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligining asosiy qonuniyatlari, ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi. Mantiqiy tahlil metodi esa tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod yordamida yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ularning oldini olish mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalar kengayib, axborot almashinuvi misli ko'rilmagan darajaga yetdi. Bu jarayon bir tomondan turli millatlar va madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi, ilm-fan va texnologiyalar rivojiga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ayrim salbiy hodisalarning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ana shunday murakkab jarayonlardan biri sifatida "ommaviy madaniyat" hodisasi namoyon bo'lmoqda. Ommaviy madaniyatning ayrim ko'rinishlari yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularning dunyoqarashi, hayotiy qadriyatlari va ma'naviy mezonlarining shakllanishiga bevosita ta'sir etmoqda. Xususan, iste'molchilik kayfiyati, individualizm, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yish, yengil-elpi turmush tarzini targ'ib etish kabi holatlar yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda milliy urf-odatlar, oilaviy qadriyatlar, kattalarga hurmat, vatanparvarlik va jamiyat oldidagi mas'uliyat tuyg'usi kabi muhim tushunchalarga nisbatan bepisand munosabat shakllanish xavfi yuzaga keladi. Ayniqsa, internet tarmog'i, ijtimoiy media platformalari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarning axborot makoniga bo'lgan kirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bugungi kunda

yoshlar turli manbalardan juda katta hajmdagi axborotlarni qabul qilmoqda. Biroq barcha axborotlar ham ijobiy mazmunga ega emas. Ayrim hollarda zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan, milliy qadriyatlarni inkor etuvchi yoki yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan materiallarning keng tarqalishi kuzatilmoqda. Bu esa yoshlarning mafkuraviy barqarorligiga ma'lum darajada xavf tug'dirishi mumkin.

Shuningdek, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri natijasida ayrim yoshlar o'z milliy madaniyati va tarixiy merosidan uzoqlashib, begona madaniy stereotiplarni o'zlashtirishga moyillik bildirishi mumkin. Natijada milliy o'zlikni anglash hissining susayishi, ma'naviy qadriyatlarga nisbatan loqaydlik hamda ijtimoiy mas'uliyatning pasayishi kabi holatlar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Shu sababli yoshlarni turli ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash yoshlarning har qanday axborotni tahlil qilish, uning ishonchlilik darajasini baholash va turli g'oyalarni ongli ravishda qabul qilishiga yordam beradi. Bu esa ularning turli manipulyativ ta'sirlarga berilib ketishining oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish, media savodxonlik darajasini oshirish, internetdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda media savodxonlik nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni saralash, tahlil qilish va undan maqsadga muvofiq foydalanish madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlash, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va an'analarni yosh avlod ongiga chuqur singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tarbiyalangan yoshlar turli yot g'oyalar va ma'naviy tahdidlarga nisbatan kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchilariga aylanishlari mumkin.

Shunday ekan, globallashuv sharoitida ommaviy madaniyatning ijobiy jihatlaridan oqilona foydalanish bilan birga, uning salbiy oqibatlarining oldini olish, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish va ularda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish davlat, jamiyat, oila va ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, inson shaxsining shakllanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Har qanday jamiyatning ma'naviy qiyofasi, avvalo, oilalardagi tarbiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki insonning dastlabki dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, hayotiy tamoyillari va qadriyatlarga munosabati aynan oilada shakllanadi. Shu bois oila shaxs kamolotining birlamchi va eng muhim tarbiya maskani sifatida e'tirof etiladi. Farzandning ma'naviy qiyofasi, xulq-atvori, ijtimoiy faolligi hamda kelajakdagi hayotiy pozitsiyasi ko'p jihatdan oiladagi muhitga bog'liq bo'ladi. Oilada hukm suradigan mehr-oqibat, o'zaro hurmat, mas'uliyat va sog'lom ma'naviy muhit bolaning barkamol inson sifatida voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi. Aksincha, oiladagi befarqlik, tarbiyaga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi yoki ma'naviy muhitning zaifligi yoshlar ongida turli salbiy qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashishi, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishi, yosh avlod bilan doimiy muloqotda bo'lishi ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, farzandlarda halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-muruvvat kabi fazilatlarni shakllantirishda ota-onaning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Chunki bolalar ko'pincha nasihatdan ko'ra amaliy namuna orqali tarbiya oladilar. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda oilaning tarbiyaviy vazifalari yanada ortib

bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan turli axborotlar yoshlarning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ota-onalar farzandlarning axborot makonidagi faoliyatiga befarq bo'lmasliklari, ularni to'g'ri axborot manbalaridan foydalanishga yo'naltirishlari hamda media madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Shuningdek, oilada kitobxonlik muhitini yaratish yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning tafakkur doirasini kengaytirish va ma'naviy dunyosini boyitishda muhim vosita hisoblanadi. Oila a'zolarining birgalikda kitob mutolaa qilishi, adabiy asarlar yuzasidan fikr almashishi, farzandlarni badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqtirish ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kitobxonlik madaniyatining shakllanishi esa yoshlarni turli zararli g'oyalar va ma'naviy tahdidlardan himoya qiluvchi muhim omillardan biridir.

Bundan tashqari, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni yosh avlod ongiga singdirishda ham oilaning o'rni beqiyosdir. Ota-bobolardan meros bo'lib kelayotgan ezgu qadriyatlar, milliy bayramlar, oilaviy an'analari va odob-axloq me'yorlari farzandlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantiradi. Bu esa yoshlarning o'z xalqining tarixi, madaniyati va ma'naviy merosiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, oilada sog'lom psixologik muhitni ta'minlash, farzandlarning muammolariga befarq bo'lmaslik, ular bilan ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yish ham tarbiya samaradorligini oshiradi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi samimiy muloqot yoshlarning turli salbiy ta'sirlarga berilib ketishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli va yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat o'quvchilarga va talabalarga zarur bilim, ko'nikma hamda malakalarni berish, balki ularda mustaqil fikrlash, hayotiy pozitsiyani shakllantirish, Vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini qaror toptirishdan iboratdir. Shu bois ta'lim muassasalari yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning turli mafkuraviy tahdidlar va zararli axborot oqimlari ta'siriga tushib qolishining oldini olishda ta'lim muassasalarining mas'uliyati yanada ortib bormoqda. Chunki aynan ta'lim muassasalari orqali yoshlarning dunyoqarashi kengayadi, ularning ijtimoiy faolligi ortadi va jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Ta'lim jarayonida beriladigan bilimlar yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, voqelikni tahlil qila olishga va turli axborotlarni saralash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirishda ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Turli davra suhbatlari, uchrashuvlar, ma'naviyat soatlari, tanlovlar, seminar-treninglar va targ'ibot tadbirlari orqali yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotiraga sadoqat va yuksak fuqarolik mas'uliyati tuyg'ulari shakllantiriladi. Bunday tadbirlar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularni zararli odatlar va turli yot g'oyalardan himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ham yoshlar ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi. Badiiy, ilmiy va ma'rifiy adabiyotlarni mutolaa qilish yoshlarning tafakkurini boyitadi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ma'naviy ehtiyojlarini yuksaltiradi. Shu sababli ta'lim muassasalarida kitobxonlikni keng

targ'ib etish, adabiy uchrashuvlar va mutolaa loyihalarini tashkil etish ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish ham yoshlar tarbiyasining sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish va media savodxonlik elementlarini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali yoshlarning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligi rivojlantiriladi. Bu esa ularning turli mafkuraviy xurujlarga nisbatan mustahkam pozitsiyaga ega bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning shaxsiy namunasi ham tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasi, muomala madaniyati va yoshlar bilan ishlashdagi mas'uliyati o'quvchilar uchun muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. Chunki yoshlar ko'pincha ustozlarining xulq-atvori va hayotiy qarashlaridan o'rnak oladilar. Shu bois pedagoglarning o'z ustida muntazam ishlashi, ma'naviy saviyasini oshirib borishi va zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni egallashi muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. Ota-onalar yig'ilishlari, individual suhbatlar, hamkorlikdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va doimiy muloqot orqali farzand tarbiyasida yagona yondashuv shakllanadi. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi mustahkam hamkorlik yoshlarning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta'lim muassasalari yoshlarni bilimli, mustaqil fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimining imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish hamda pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mahalla xalqimizning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va an'alariga tayanuvchi noyob ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Asrlar davomida shakllanib kelgan mahalla tizimi nafaqat aholini birlashtiruvchi ijtimoiy tuzilma, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim tarbiya maskani sifatida ham katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bugungi kunda ham mahalla jamiyat hayotida fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, aholi farovonligini ta'minlash va yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutmoqda. Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashda mahalla institutining imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Mahalla fuqarolar yig'inlari, nuroniylar, xotin-qizlar faollari, yoshlar yetakchilari hamda boshqa jamoatchilik vakillarining hamkorlikdagi faoliyati yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, sport musobaqalari, kitobxonlik kechalari, madaniy loyihalar va tarbiyaviy uchrashuvlarning muntazam tashkil etilishi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish imkonini yaratadi. Mahalla tizimida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat, fuqarolik mas'uliyati va jamiyat oldidagi burch hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlarning qiziqishlari va iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash, ularni turli to'garaklar, ijodiy va sport mashg'ulotlariga jalb etish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Mahalla institutining muhim vazifalaridan biri oilalar bilan manzilli va individual ishlash tizimini yo'lga qo'yishdan iboratdir. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, tarbiyasi og'ir bo'lgan yoshlar hamda turli muammolarga duch

kelayotgan voyaga yetmaganlar bilan alohida ishlash salbiy holatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Mahalla faollari tomonidan oilalarning ijtimoiy holatini o'rganish, zarur hollarda ularga amaliy yordam ko'rsatish va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, muammoli yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga yo'naltirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoshlarning turli salbiy ta'sirlarga berilib ketishining oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Yoshlarning muammolariga befarq bo'lmaslik, ular bilan muntazam muloqot qilish va ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlash orqali ko'plab salbiy holatlarning oldi olinadi. Mahalla tomonidan jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi ham yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zaro hamjihatligi, birdamligi va mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qilib, mahalla hududida sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirishga yordam beradi. Bu esa yoshlarning turli yot g'oyalar, zararli odatlar va huquqbuzarliklardan himoyalinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mahalla oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi muhim bo'g'in sifatida ham faoliyat yuritadi. Mahalla faollari, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi asosida yoshlar tarbiyasiga doir masalalarni birgalikda hal etish, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga samarali yechim topish imkoniyati yaratiladi. Ana shunday hamkorlik natijasida yoshlar uchun sog'lom ma'naviy muhit shakllanadi va ularning barkamol shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Umuman olganda, mahalla instituti yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda jamiyat hayotida faol fuqarolar sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan noyob ijtimoiy institut hisoblanadi. Shu bois mahalla tizimining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorligini yanada mustahkamlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash va ularni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda oila, ta'lim muassasalari hamda mahalla institutlari o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ijtimoiy institutlarning o'zaro uyg'un faoliyati yoshlar tarbiyasida yaxlit tizimni shakllantirishga, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni samarali bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu sababli hamkorlikning zamonaviy va ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, oila, ta'lim muassasalari va mahalla o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun muntazam muloqot va axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish zarur. Tarbiya jarayonida yagona yondashuvning mavjudligi yoshlar ongida ijobiy fazilatlarni shakllantirishga hamda tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bunda har bir ijtimoiy institutning vazifalari aniq belgilanishi va ularning o'zaro hamkorligi izchil yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikning samarali shakllaridan biri sifatida ota-onalar universitetlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Bunday tizim orqali ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarini oshirish, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini kuchaytirish hamda zamonaviy tarbiya usullarini o'rgatish imkoniyati yaratiladi. Ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirish oiladagi ma'naviy muhitni mustahkamlashga va farzandlar bilan samarali muloqot o'rnatishga xizmat qiladi.

Shuningdek, oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminarlar va targ'ibot tadbirlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmat,

Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turli soha mutaxassislari, ziyolilar va nuroniylar ishtirokidagi uchrashuvlar yoshlarning hayotiy tajribasini boyitadi va ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Turli sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar, fan to'garaklari, madaniy tadbirlar va ko'ngilochar loyihalarni tashkil etish orqali yoshlarning qiziqishlari qo'llab-quvvatlanadi hamda ularning salbiy ta'sirlarga berilib ketishining oldi olinadi. Ayniqsa, bo'sh vaqtning to'g'ri tashkil etilishi yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va turli noxush holatlarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi sifatida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalasi alohida e'tiborga loyiqdir. Oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligida kitobxonlik haftaliklari, adabiy kechalar, mutolaa tanlovlari va ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Kitob mutolaasi yoshlarning tafakkurini kengaytirib, ularda mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy axborot makonida yoshlarning media madaniyatini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois internet va media savodxonlik bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish, yoshlarni ishonchli axborot manbalaridan foydalanishga o'rgatish, zararli kontentlarning salbiy oqibatlarini haqida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish muhimdir. Media savodxonlik yoshlarning turli manipulyativ axborotlar va mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, muammoli yoshlar bilan individual ishlash tizimini takomillashtirish ham hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bunda oila, pedagoglar, psixologlar, mahalla faollari va tegishli tashkilotlar vakillarining hamkorlikdagi faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yoshning qiziqishi, ehtiyoji va ijtimoiy holatini inobatga olgan holda manzilli yondashuvni qo'llash ularning muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Shunday qilib, oila, ta'lim muassasalari va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur institutlarning o'zaro hamjihatligi va bir maqsad yo'lida faoliyat olib borishi barkamol, vatanparvar va yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois hamkorlikning zamonaviy mexanizmlarini yanada rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi va axborot makonining kengayishi sharoitida yoshlarni turli ma'naviy tahdidlar hamda ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy davr yosh avlodidan nafaqat chuqur bilim va kasbiy malakani, balki yuksak ma'naviyat, mustahkam hayotiy pozitsiya hamda turli mafkuraviy xurujlarga qarshi tura olish qobiliyatini ham talab etmoqda. Shu bois yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlash masalasi jamiyat taraqqiyoti va davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ommaviy madaniyat tahdidlaridan yoshlarni himoya qilish faqatgina biror tashkilot yoki ijtimoiy institut zimmasidagi vazifa emas. Mazkur jarayon kompleks yondashuvni talab etadi va bunda oila, ta'lim muassasalari hamda mahalla institutining o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu uchlikning uyg'un va izchil faoliyati yoshlar tarbiyasida yagona ma'naviy muhitni shakllantirish, ularning bo'sh

vaqtini mazmunli tashkil etish hamda turli salbiy ta'sirlarning oldini olish imkonini beradi. Oila farzand tarbiyasining dastlabki va eng muhim bo'g'ini sifatida yoshlarning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi va hayotiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari esa yoshlarni bilimli, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va ijtimoiy faol shaxslar etib tarbiyalash orqali ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mahalla instituti esa oila va ta'lim tizimini birlashtiruvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida yoshlarning ijtimoiylashuvi, ma'naviy kamoloti va jamiyat hayotidagi faolligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlar ongida milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy merosga sadoqat, Vatanga muhabbat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Aynan shu fazilatlar yoshlarning turli yot g'oyalar va ma'naviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, media savodxonlikni rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini keng targ'ib etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy institutlar hamkorligini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, oila, ta'lim muassasalari va mahalla o'rtasidagi uzviy hamkorlik yoshlarning ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur hamkorlikning yanada mustahkamlanishi barkamol, yuksak ma'naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq hamda mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Binobarin, yoshlar tarbiyasida barcha ijtimoiy institutlarning hamjihatligi va mas'uliyatini kuchaytirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016.
4. Erkayev A. *Ma'naviyatshunoslik asoslari*. – Toshkent, 2018.
5. Nazarov Q. *Qadriyatlar falsafasi*. – Toshkent, 2011.
6. Jo'rayev N. *Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari*. – Toshkent, 2017.
7. Yusupov E. *Inson kamolotining ma'naviy asoslari*. – Toshkent, 2015.

Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovnana

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOY-MA'NAVY ODOBNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi misolida)	78	82
--	----	----

Karimov Xabibullo Shavkatovich

SPORTCHILARNING JISMONIY VA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINING VOLEYBOL NATIJALARIGA TA'SIRI	83	90
--	----	----

Sobirova Jumagul Erkinjon qizi

FASILITATORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM MUHITINING AHAMIYATI	91	99
---	----	----

IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR

Bazarov Mirzohid Mirzabahromovich

O'ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATI VA SAN'ATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	100	106
---	-----	-----

Odilov Komiljon Furqatjon o'g'li

OILA, TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIGIDA YOSHLARNI OMMAVIY MADANIYAT TAHDIDLARIDAN ASRASH MASALALARI	107	115
---	-----	-----

Adusamatov Ozodbek Olimjon o'g'li

YOSHLARDA MA'NAVY IMMUNITET VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	116	121
--	-----	-----

G'apurova Lola Xamidulla qizi

O'QUVCHILARGA MUSIQIY CHOLG'ULARNI TANISHTIRISH VA IJRO MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH	122	128
---	-----	-----

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Do'monov Bahrom Muhtarovich

KIMYO FANINI LOYIHALASHTIRISH TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	129	132
--	-----	-----

Burxonova Munajatkhon Maxamboyevna, Sirojiddinov Behzod Arabdjonovich

GENETIKA MASALALARI YECHISH ASOSIDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	133	139
--	-----	-----

Ubaydullayev Solijon Qodirovich, Tursunov Farxodjon Ermakboyevich, Qo'ychiyeva Mohlaroy Lutfidin qizi

TEXNOLOGIYA TA'LIM DARSLARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	140	142
--	-----	-----

Rahmonov Mirzoxid Shavkatovich, Umarov Sirojiddin Sayfiddin o'g'li

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH	143	150
---	-----	-----

Isayev Bohodirjon Makhamatshoyevich

SANOAT KORXONALARINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA KIBERHUJURLARNI AVTOMATIK ANIQLASH VA MONITORING QILISH TIZIMINI TADQIQ ETISH VA ISHLAB CHIQUISH	151	154
--	-----	-----

